

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF WORKING ON THE TEXT IN READING LESSONS

T.Turdaliyeva

ADU masters

tursunoy93@internet.ru

Annotation: The Primary Reading Book contains popular art and science articles in a variety of genres. We know that in a work of art, life is represented through images. At its center is man, his relationship to nature and society. The rules of depiction of existence, reality in the work of art through images, objective content and subjective assessment in concrete material are of great theoretical and practical importance for the methodology.

Keywords: Work on the text; oral speech; a work of art; selective reading

O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

T.Turdaliyeva

ADU magistri

tursunoy93@internet.ru

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi"da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Bizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'ektiv mazmun va sub'ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Matn ustida ishlash; og'zaki nutq; badiiy asar; tanlab o'qish

Boshlang'ich sinf o'qish va ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchining og'zaki va yozma nutqini o'stirish unga o'z fikrini aniq va to'g'ri bayon qilishni o'zgalar bilan bemalol muloqotda bo'lishni o'rgatadi. Bu masala, dastavval, dars jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi savol-javob – diologlar vositasida amalga oshiriladi. O'quvchi xar bir javobni to'g'riligi, gap va undagi so'zlarning to'g'ri qo'llanganligi va talafuzni nazorat qilib boradi. O'quvchining yozma nutqi ona tilidan tilning fonetikasi, leksikasi va gramatikasini o'rgatish davomida rivojlantirib borilsa, og'zaki nutqini o'stirish, nutqni boyitib boorish vazifasi, asosan, o'qish darslarida amalga oshiriladi.

O'qish darsi dasturiga asosan tuzilgan darsliklarda ilmiy-publitsistik matnlar va badiiy matnlar berilgan. Darslikda berilgan matnlar o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan bo'lishi kerak.

1. O'quvchining og'zaki nutqini o'stirish
2. O'quvchining so'z boyligini oshirish
3. O'quvchiga ma'naviy tarbiya berish

Darslikda berilgan matn qaysi janrda bo'lishidan qat'iy nazar u o'quvchining lug'at boyligini oshirishga, og'zaki nutqini o'stirishga va o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilishi kerak. Matnlar soddadan murakkabga qarab tamoyili asosida tuzilib, xar bir matnni o'qib-o'rganish davomida o'quvchi yangi so'z, ibora va uning ma'nosini ham o'zlashtirib borishi zarur. O'qituvchi matn xoh nasriy, xoh nazmiy bo'lsin birinchi navbatda uni to'g'ri, ifodali va ongli o'qishga o'rgatishi zarur.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va publitsistik maqolalar berilgan. Istalgan asarning ob'ektiv mazmunini butun borliq, mavjudod, uning turli tamonlari, faktlar va uning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrozlari orqali tasvirlanadi, uning markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, vaqelikni obrozlari (personajlar) vositalarida tasvirlash, ob'ektiv mazmun va sub'ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun hamma nazariy-amaliy ahamiyatiga ega.

Badiiy asar matn ustida ishlashda obrozlari va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabatini o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'qituvchi voqelikni obrozlari orqali tasvirlanishining o'ziga xos hususiyatlarini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Ikkinchidan, xar qanday badiiy asarda aniq voqealar yoki tarixiy davrlardagi voqealar tasvirlanishini aytib o'tadi. O'quvchi asarda tasvirlangan hayot va voqealarni anglab yetganiga, matnni to'g'ri o'qishi, undagi obrozlarining xatti-harakati va fe'l-atvorini tushunish, faktlar va voqealarini to'g'ri baholay olishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan hayot bilan qisqacha mazmunini, o'quvchilarda asardagi obrozlarining xatti-harakatini, ular yashagan davrni va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish tushuniladi.

O'qish darslarida berilgan materiallar – she'rlar, hikoyalar, ertaklar, asardan parchalar, hatto tez aytish topishmoq va maqolalar yoki yosh psixologiyasi va o'quvchilar lug'at boyligini hisobga olgan holda tanlanadi. O'quvchiga havola etilayotgan material emotsiyanaligi tarbiyaviyligi va yngisi bilan xarakterlanadi. Xar bir matnda o'quvchilar lug'at boyligiga qo'shilish kerak bo'lgan yangi so'zlar ishtirok etadi. Matnlar o'quvchiga ma'naviy-tarbiyaviy ozuqa berishi bilan birga lug'at boyligini oshirish va og'zaki nutqini o'stirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga ko'ra bolalar lug'at boyligi ikki yoshda 30 tadan 100 tagacha, 4 yoshda 1000 tadan 4000 tagacha, 7 yoshda 3000 tadan 7000 tagacha, 10 yoshda 8000 tadan 13000 tagacha, 15 yoshda 11000 tadan 18000 tagacha so'zni bilish mumkin ekan.

Badiiy asar va matn ustida ishlash jarayonida yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning ishlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. Yozuvchi badiiy asarda tasvirlangan hayotiy faktlarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi voqealariga o'z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotiy materiallariga bahosi aniq faktlar asosida yaratilgan badiiy asarning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asarning g'oyaviy yo'nalishini yozuvchining dunyo qarashiga bog'liq. Badiiy asar va uning matnini tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tuzilishiga o'rgatish muhimdir. Bu asarni to'g'ri idrok etish uchun matn ustida ishlash ko'nikmasini, o'quvchilarning dunyo qarashini fuqarolik tuyg'ularini shakllantirish uchun zarur. Asarning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchiga ta'sir kuchi uchun g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

Badiiy asar ustida ishlashni to'g'ri tashkil qilish uchun shakl va mazmun borligi haqidagi qoida e'tiborga olinadi.

Badiiy matn mazmuni tuzilishi undagi obrozlarining xatti-harakatini tahlil qilish va asarning g'oyaviy aniqlash uchun dastavval, asar matnini ustida ishlash zarur bo'ladi. Matn o'qilgandan keyin uning tarkibidagi yangi so'zlar-o'quvchilarga tanish bo'lgan so'zlar aniqlanadi. Ularning ma'nosi izohlanadi. Bu jarayon doska yoki ko'rsatmali qurol yordamida amalga oshiriladi. Matn tarkibidagi xar bir gap yoki obzats o'qilgandan keyin uning tarkibidagi notanish (yangi so'zlar) aniqlanib, doskaga yoziladi. Yangi so'zning ma'nosi uning asosini keltirish orqali izohlab doskaga yoziladi. Yangi so'zning ma'nosi izohlangandan so'ng uning ishtirokida gap tuziladi. Shu tarzda yangi so'zlar izohlanib, matn mazmuni to'la ochib beriladi. Yangi so'zlarning ma'nosini o'quvchilar daftariga yozib oladilar. O'qituvchi matnni yoki uning bir qismini o'qib eshittiradi. Asarning ifodali o'qishga tayyorlash shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi.

1. Berilgan asarning mazmunini tushunish, undagi obrozlarini tahlil qilish, asarning g'oyasini aniqlash.
2. O'qish tempini belgilab olish
3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini uning tasvirlangan voqea hodisalarga va obrozlariga munosabatini aniqlash.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matnni tuzilishini muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilardan ifodali o'qish masalalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun nazmiy yoki nasriy matn o'qituvchining o'zi ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

Matndagi har bir gapning ma'nosini tushuntirib o'tish matnni qayta hikoya qilish va uni tahlil qilishni asosi sanaladi. Matnni tahlil qilishning asosiy vazifasi asrning aniq mazmuni (voqea va suyujetning rivojlanishini) kompazitsiyani, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va harakatlari hususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni o'rganish va tuzilish jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Matnni tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifasiga mos qismini o'qiladi. Vazifa asraning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy hususiyatlarini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini bildirishdan iborat bo'lishi mumkin.

Tanlab o'qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida xar hil murakkablikda foydalaniladi. Tanlab o'qishning yana ham murakkabroq turi matndan sabab-natija munosabati bilan bog'langan faktlarni taqqoslashni umumlashtirishni talab qiladigan o'rinlarni tanib o'qish hisoblanadi.

Bunda o'quvchi asardagi obroz ishtirok etgan voqeani topib o'qiydi. Voqea sababi yoki natijasini aniqlaydi.

Tanlab o'qish ongli va ifodali o'qish masalasini shakillantirish matn ustida ishlash ko'nikmasini shakillantirish bilan birga qo'shib olib borishga, o'quvchining ijodiy tasavvurini boyitishga, nutqi va zehni o'stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o'qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o'qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunida), qahramonni tasvirlashda, matndan qahramonning harakter hususiyatini, harakteri tasvirlovchi materiallarni tanlashda, asarning g'oyasini anglatgan o'rinni topib o'qishda taqbiq etiladi. Matn ustida ishlashda keng tarqalgan ish turlaridan biror berilgan savolga o'z so'z bilan javob berishdir. Matnning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama ko'rinishi ko'nikmasini o'stirishga, qatnashuvchi obrozini baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bo'g'lanishni aniqlashga imkon beradi. Savollar mazmun maqsadiga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lish zarur. Matn ustida ishlashda matn mazmunini qayta hikoya qilishni talab qiladigan savollardan va sabab natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva K va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. T., «O'qituvchi». 1996 -yil.
2. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O'qish darslari. (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. O'qituvchi, 2004-yil.
3. Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf Toshkent. O'zbekiston, 2003-yil.
4. Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi», «O'qituvchi», 2004-yil.
5. Umarova M. «O'qish kitobi» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi» 2003-yil.
6. Umarova M. 3-sinfda O'qish darslari (O'qituvchi kitobi.) Toshkent «Ijod dunyosi» 2003-yil.